

**“BIR MAKON, BIR YO‘L” LOYIHASI DOIRASIDA AFG‘ONISTON
VA XITOIY MUNOSABATLARI TARIXI**

Nurislom Axmadjonov

Toshkent davlat shaqrshunoslik universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada Afg‘oniston va Xitoyning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, XXR tomonidan modellashtirilgan “Bir makon, bir yo‘l” strategik loyihasining siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-moliyaviy maqsad-sabablari Afg‘oniston bo‘yicha tahlil qilinadi. XXRning tashqi siyosatida nafaqat Markaziy Osiyo balki qo‘shi Afg‘onistonning ahamiyati yoritilib beriladi.

Tayanch so‘zlar: Afg‘oniston, Xitoy, “Bir makon, bir yo‘l”, iqtisodiy yordamlar

**HISTORY OF AFGHANISTAN AND CHINA RELATIONS IN THE
FRAMEWORK OF THE "ONE WAY – ONE BELT" PROJECT**

Nurislom Akhmadjonov

Master of Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: The article analyzes the mutual relations between Afghanistan and China, as well as the political-economic, socio-financial goals and reasons of the strategic project "One Way – One Belt" modeled by the PRC in Afghanistan. The importance of not only Central Asia but also Afghanistan in the foreign policy of the PRC is highlighted.

Key words: Afghanistan, China, “one way – one belt”, economic supports

KIRISH

2017-yilda ilk bor o‘tkazilgan “Bir makon, bir yo‘l” xalqaro forumi ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash, rivojlanishning yangi modelini izlash, shakllantirish va harakatlantirishga yo‘naltirilgan loyiha sifatida e‘tirof etilmoqda. Xitoy ilgari surgan mazkur tashabbus ikki yo‘nalish – quruqlik va dengiz yo‘llarini rivojlantirish va o‘zaro bog‘lash orqali davlatlararo hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan.[1] Hozirgi kunda u Osiyo, Yevropa va Afrikadagi 65 mamlakatni qamrab olgan. Kelgusida unga boshqa davlatlar ham qo‘shilishi natijasida global iqtisodiy makonga aylanadi. “Bir makon, bir yo‘l” loyihasining asosiy maqsadlaridan biri global erkin savdo tartibini qo‘llab – quvvatlash, Osiyo, Yevropa va Afrika mamlakatlari o‘rtasida integratsiyani kengaytirishga qaratilgan. Hisob – kitoblarga ko‘ra, butun loyiha taxminiy iqtisodiy ko‘lami 21 trillion AQSH dollarini tashkil qiladi. Bugungi kunda 100 dan ortiq davlat loyihada qatnashish istagini bildirgan, 40 dan ziyodi Xitoy bilan hamkorlik qilish bo‘yicha bitim

imzolagan. Natijada 2013 yildan 2017 yilgacha Xitoy va “Bir makon, bir yo‘l” loyihasiga qo‘shilgan mamlakatlar o‘rtasida tashqi savdo aylanmasi 4,8 trillion AQSH dollariga etdi, yillik o‘shish 4 foiz oshdi. Xitoy loyiha doirasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlikni nazarda tutuvchi “moslashuvchan mexanizmlar”ni qo‘llab kelmoqda. Xitoyning tranzit – logistika sohasiga oid loyihalari Markaziy Osiyo mamlakatlarning jahon bozoriga chiqishi, boshqa davlatlar bilan sanoat kooperatsiyasini mustahkamlashiga keng yo‘l ochmoqda.

O‘zbekiston birinchilar qatorida “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini qo‘llab – quvvatladi va uning a‘zo – ta‘sischilaridan biriga aylandi. Mamlakatimiz uchun dengiz portlariga chiqish juda muhim. Shu bois, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Afrika bozorlariga chiqish imkonini beruvchi xalqaro transport yo‘laklarini tashkil etish bo‘yicha loyihalarda faol ishtirok etmoqda. “Bir makon, bir yo‘l” ikkinchi xalqaro forumi 27 aprel kuni “Yansi” xalqaro konferensiyalar markazida delegatsiya rahbarlarining davra suhbatini tarzida davom etdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi. Xalqaro va mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik masalalari Markaziy Osiyo, jumladan, dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyati bo‘lmagan mamlakatimiz uchun dolzarb bo‘lib kelgan va hozir ham shunday. O‘zbekiston mamlakatlarimizning barqaror taraqqiyotida muhim omil bo‘ladigan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini ilk kunlardan oq qo‘llab – quvvatlagan, dedi Shavkat Mirziyoyev. Davlatimiz rahbari forum davra suhbatining Qo‘shma bayonoti qabul qilinishini ma‘qullab, bu mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, umumiy maqsadlarga erishish, iqtisodiy yuksalishning yangi manbalarini kashf etish, natijada xalqlarimiz turmush darajasi oshishiga xizmat qilishini ta‘kidladi. Prezidentimiz Markaziy Osiyoning transport va logistika imkoniyatlarini oshirish, “yashil iqtisodiyot” orqali oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, turizmni rivojlantirish, ekologik muammolarni birgalikda bartaraf etish va boshqa dolzarb masalalar bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. Davlatimiz rahbari Afg‘oniston masalasiga ham e‘tibor qaratib, ushbu mamlakatda tinchlik o‘rnatilishi Markaziy va Janubiy Osiyoda yangi taraqqiyot manbalari yaratishini ta‘kidladi. Shavkat Mirziyoyev bu boradagi dolzarb masalalar joriy yilning kuzida Toshkentda bo‘lib o‘tadigan Afg‘oniston bo‘yicha Mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasida (RECCA) muhokama etilishini ma‘lum qildi.[12] Xitoy Afg‘onistonda 2007 yilda ochilgan energetika, mineral – xomashyo va xomashyo sektoridan keyin Afg‘oniston to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning eng katta manbayiga aylandi. “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi mintaqadagi barqarorlikni ta‘minladi. Afg‘onistonda siyosiy, iqtisodiy va harbiy hamkorlikni kuchaytirdi. Xitoy, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini rivojlantirish uchun muhim qadamlar qo‘ydi. Yangi ipak yo‘li jamg‘armasining 40 milliard dollari, Xitoy taraqqiyot bankining 900 milliard dollari va Osiyo infratuzilmasi investitsiya bankining 100 milliard dollari miqdoridagi hissasi 60 mamlakatda 900 ta loyihani qo‘llab – quvvatladi. “Bir makon, bir yo‘l”

dasturida Xitoy – Pokiston iqtisodiy koridorida, Xitoyning sarmoyasi 62 milliard dollardan ortiqni tashkil etdi. Qo‘shni Afg‘onistonda kelib chiqadigan har qanday beqarorlik Pekinning keng ko‘lamli yordami bilan bartaraf etiladi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

“Bir makon, bir yo‘l” loyihasi 2013 yildan Xitoyning Afg‘onistonga iqtisodiy yordamini sezilarli darajada oshirdi. 2001-2013 yillar oralig‘ida Afg‘onistonga qariyb 240 million dollar miqdorida yordam berdi. 2015 yildan 2017 yil oxiriga qadar 327 million dollar ajratishga va‘da berdi. Afg‘onistonlik talabalarga Xitoyda o‘qish va 3000 afg‘onni turli kasblarda o‘qitish uchun 500 nafar stipendiya taqdim etdi. Bundan tashqari, Xitoy Kobuldagi 10 mingta uyni o‘z mablag‘i bilan ta‘mirladi. 300 million dollarlik turar-joy loyihasiga sarmoya kiritdi. “Bir makon, bir yo‘l” dasturining bir qismi sifatida Xitoy Afg‘oniston bilan aloqalarini yaxshiladi. Xitoydan kelgan birinchi poyezd Qozog‘iston va O‘zbekiston orqali Afg‘oniston shimoliy – Hayraton ko‘prigi bilan bog‘langan. Shuningdek, Xitoy temir yo‘llarga sarmoyakirg‘azib, Afg‘onistonni integratsiyalashgan iqtisodiy tizimga aylantirmoqda va Pokiston orqali tranzit yo‘llarni qurmoqda. Pekin va Kobulning xavfsizlik sohasidagi hamkorlik cheklangan. 2016 yilda Pekin birinchi marta Afg‘onistonga harbiy yordam ko‘rsatdi. Afg‘oniston prezidenti Ashraf G‘ani va Xitoy qo‘shinlarining harbiy bo‘limi boshlig‘i general Fang Fenghui, Afg‘oniston qo‘shinlarini logistika uskunalari, yengil qurollar, samolyotlarning tarkibiy qismlari, Afg‘oniston milliy mudofaasi va xavfsizlik kuchlari uchun harbiy kiyimlar va o‘q-dorilar bilan ta‘minlash haqida kelishib olishdi. Afg‘oniston chegaralarida Xitoy askarlari borligini rad qilganiga qaramay, Xitoy Afg‘onistonning shimoli – sharqidagi Kichik Pomirda qo‘shma patrul idoralarini ishga tushirgan. Ikki mamlakat Afg‘onistondagi maxsus kuchlar ishtirokidagi qo‘shma aksilterror mashqlarini ham o‘tkazadi. Xitoy-Afg‘oniston diplomatik aloqalari 2014 yildan buyon sezilarli ravishda chuqurlashdi. Ashraf G‘anining Xitoyga birinchi rasmiy tashrifi 2014 yilda bo‘ldi. Shuningdek, Pekin 2014-yilda Afg‘oniston va uning qo‘shnilari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirishga intilayotgan “Osiyo yuragi” konferentsiyasiga mezbonlik qildi. Xitoyning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy aloqalar bo‘yicha loyihasi Afg‘onistondagi barqarorlikka asoslangan. Bu 2014 yildan beri Afg‘oniston hukumati va Tolibon o‘rtasida tinchlik muzokaralariga yordam berdi. Negaki, muzokaralar orqali yarashish uzoq davom etadigan tinchlikni ta‘minlashning eng yaxshi usuli deb hisoblandi. Xitoyning Afg‘onistondagi elchisi Yao Jing shunday dedi: “Afg‘oniston bilan aloqa qilmasdan Xitoyni butun dunyo bilan bog‘lashning hech qanday yo‘li yo‘q”. Xitoy Afg‘onistonda uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanmoqda. Kobul o‘z navbatida “Bir makon, bir yo‘l” dasturi Afg‘onistonda iqtisodiy o‘shni tezlashtirishga, mintaqaviy savdoda markaz sifatida paydo bo‘lishga va ichki xavfsizlikka bo‘lgan tahdidlarni bartaraf etishga yordam beradi deb hisoblaydi.[14] 2013 yilda Xitoy prezidenti Si Tszinpin 60 dan ziyod mamlakatlarga

mo'ljallangan keng ko'lamli infratuzilma loyihalar tarmog'i "Bir makon, bir yo'l" dasturini ishga tushirdi. Bu dastur, asosan, Markaziy Osiyo va Pokiston orqali Afg'onistonni harakatga keltiradi. Xitoy oxirgi yillarda Afg'onistonning bu dasturga qo'shilishni tobora kengaytirmoqda va tinchlik jarayonining yangi bosqichi- barqarorlik mamlakatga qaytib kelishi va bu bilan savdo va investitsiyalarni kengaytirish imkoniyatlariga ega bo'lishiga umid qiladi. Ushbu o'zgarish "Bir makon, bir yo'l" dasturining Afg'onistonga kengayishi haqida Kobulda joylashgan tadqiqot markazining Siyosiy tadqiqotlar va taraqqiyot bo'yicha tashkiloti (DROPS) tomonidan tayyorlangan yangi hisobotda aks ettirilgan. "Bir makon-bir yo'l" xaritasiga qarab u Afg'onistonni aylanib chiqayotganga o'xshaydi", deydi DROPS direktori Mariam Safi. Afg'oniston "Bir makon, bir yo'l"ga yaxshi moslashishi kerak. Bu jiddiy infrastruktura kamomadiga ega bo'lib, uni Xitoy sarmoyasi uchun ideal nomzod qilib qo'yadi. Bu shuningdek, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo o'rtasida, Xitoy bilan Yaqin Sharq o'rtasida eng qisqa yo'l, ayni paytda Arab dengiziga kirish eshigi bo'lib xizmat qiladi. Xitoy hozir Afg'onistonning eng yirik biznes – investori bo'lib, u mamlakatga yordam ko'payishiga va Xitoy kompaniyalari qurilish loyihalariga jalb qilingan. Pekin, shuningdek, Afg'onistonning tabiiy resurslar misekopiya-siga qiziqish ko'rsatdi. Bu yerda lityum (mobil telefonlar batareyalarida ishlatiladigan resurs) kabi muhim foydali qazilmalar mavjud. Mamlakatning zaif logistika va xavfsizlik holati ushbu resurslarni tashishni qiyinlashtiradi. Biroq Xitoy Shimoldagi Amudaryo havzasi neftini va Kobul yaqinidagi Mas Aynak konida mis qazib olish huquqini qo'lga kiritdi. 2016 yilda Pekin va Kobul o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi. Xabarlariga ko'ra, Xitoy moliyalash uchun kamida 100 million dollar ajratgan.

2016 yil sentyabr oyida Xitoydan birinchi to'g'ridan – to'g'ri yuk poyezdi Afg'onistonning Hayraton shahriga bordi. "Bir makon, bir yo'l" qoshida Kobul va Xitoyning Urumchi shaharlarini bog'lovchi havo yo'lagi ishga tushirildi. Xitoydan Eronga Afg'oniston orqali o'tadigan "Beshta Millatlararo temir yo'l" qurish rejasi texnik-iqtisodiy asoslash bosqichida. Pokiston chegarasida Kunduzni Torkham bilan bog'lovchi shimoliy – janubiy temiryo'l yo'lagi qurilishini rejalashtirilgan. Xitoy Afg'onistonda deyarli mavjud bo'lmagan temir yo'l tarmog'ini kengaytirish niyatida. Afg'oniston hukumati DROPS tomonidan ko'rib chiqilgan hujjatlarga muvofiq, Xitoy bu sa'y – harakatlar uchun yordam berishga va'da berdi. Shimoliy-janubiy temir yo'li tabiiy resurslarni tashish va Pokiston bilan bog'lanishiga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, CASA-1000 va TAP-500 kabi O'rta va Janubiy Osiyoga Afg'oniston orqali elektr energiyasi etkazib beradigan energetika loyihalari mavjud.[15]

"Bir makon, bir yo'l" dasturi Afg'oniston singari rivojlanish bosqichidagi mamlakatlarning rivojlanishiga yordam berishni ham maqsad qilgan. Xususan, uning vazifasi ushbu davlatlardagi iqtisodiy o'sish uchun momentumni yaratishdir. Afg'onistonda oxirgi o'n yillikda faoliyat yuritayotgan an'anaviy rivojlanish modeli

muvaffaqiyatsizlikka uchradi, chunki u barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab – quvvatlash uchun ichki dinamizmni yarata olmadi. Rivojlanishning an’anaviy modeli, mavjud iqtisodiy faoliyatni, asosiy infratuzilmani, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, Afg‘oniston hukumatlarini tuzishga qaratilgan. G‘arbiy Osiyoda “Bir makon, bir yo‘l” dasturi Afg‘onistonni tranzit va savdo markazi sifatida qayta tiklashga qaratilgan. Umuman olganda, Afg‘onistonning iqtisodiy rivojlanishiga ikki tomonlama yordam beradigan an’anaviy rivojlanish modelidan farq qiladi: birinchi navbatda, “Bir makon, bir yo‘l” afg‘on jamiyatini barqarorlashtirish va uning iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab – quvvatlash uchun ichki dinamizm masalasiga ustuvor ahamiyat beradi. Ikkinchidan, “Bir makon, bir yo‘l” avvalgi milliy rivojlanish strategiyasidan kelib chiqadigan uzoq muddatli muammolardan biri bo‘lgan Afg‘onistonning ishsizlik muammosi vaziyatni tan oladi. Ishbilarmonlik uchun hamkorlik platformasini yaratish Afg‘onistonning iqtisodiy maqomini oshiradi. Dastur shuningdek, tarixiy masalalarni o‘z ichiga oladi va qadimiy Ipak yo‘li konsepsiyasidan foydalanib, Afg‘onistonning iqtisodiy rivojlanishini mustahkamlash uchun turli xil qayta qurish rejalarini birlashtiradi. Mintaqaviy tranzit va savdo markaziga ko‘maklashish tashabbusi Afg‘onistonni Ipak Yo‘li markaziga aylantirdi. Afg‘oniston Qadimgi Sharq va G‘arb dunyosini bog‘lovchi tranzit markaz sifatida qaraldi. 2001 yildan beri Afg‘oniston o‘z transport tizimini doimiy ravishda qurmoqda va G‘arbiy Osiyoda o‘zaro aloqa o‘rnatishga yordam bermoqda. Afg‘oniston hukumati Xitoy bilan hamkorlikni ixtiyoriy tarzda olib bormoqda. Xitoy hukumati, shuningdek, Xitoy, Markaziy Osiyo, G‘arbiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Yevropaning yangi formatini yaratish uchun Afg‘oniston muhim rol o‘ynashi mumkin, deb hisoblaydi. Bu Afg‘oniston va boshqa yo‘llardagi mamlakatlarda barqaror rivojlanish imkoniyatini beradi. 2013 yilda Xitoy Afg‘oniston va Pokiston bilan bog‘lanish uchun asosiy yo‘lak bo‘lgan Kobul va Jalolobod o‘rtasida avtomobil yo‘li loyihasini amalga oshirishda ishtirok etdi. Xitoy va Afg‘oniston o‘rtasidagi temir yo‘l yuklari tashkil etilib, savdo – sotiq yo‘llari ko‘paytirildi. Osiyoning boshqa mamlakatlari, xususan, Xitoy va Pokiston bilan tranzit va sheriklik aloqalarini yo‘lga qo‘yish uchun Afg‘onistonning iqtisodiy faoliyatida ishtirok etishga imkon yaratadi.

XULOSA

“Bir makon, bir yo‘l” dasturi Afg‘onistonda Xalqaro avtomobil tashish (TIR) ni bosqichma – bosqich amalga oshirishni qo‘llab – quvvatlaydi. Ashraf G‘ani ma'muriyati Afg‘onistonning milliy taraqqiyot strategiyasida energetika va mineral sohalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berdi. Afg‘oniston hukumati muntazam ravishda neft, va neftni qayta ishlash loyihalarini ishga tushirdi va rivojlanish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etdi. “Bir makon, bir yo‘l” dasturi shuningdek, energetika sohasidagi hamkorlik loyihalarini, xususan, yirik mineral va tabiiy gaz loyihalari bilan hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Dastur Afg‘oniston va qo‘shni davlatlar o‘rtasida tijorat faoliyatiga

yordam beradi. Tashabbusning asosiy tarkibiy qismlari va sa'y – harakatlari mahalliy jamiyatda transchegaraviy biznes va investitsiyalarni rag'batlantirish siyosati va tartibga solish imkonini beradi. 2014 yilda Xitoyning Afg'onistonga kiritgan to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalari 27,92 million dollarni tashkil etgan va Xitoyning Afg'oniston bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalarining umumiy hajmi 2014 yil oxiriga qadar 518 million dollarni tashkil qilgan. 2013-2014 moliyaviy yillarida bir qancha yirik investitsiya loyihalari bilan bir qatorda, Afg'onistonda umumiy qiymati 58 million AQSh dollariga teng 49 loyiha imzolangan. Mintaqaviy mehnat bozorini rivojlantirish tashabbusi 2001 yildan beri Kobul, Nangarhor va Hirot shaharlarida bir qator sanoat parklari barpo etildi va qayta qurildi. Ikki tomonlama savdoning va xalqaro investitsiyalarning ortishi bilan ishchilarga bo'lgan talab kuchaydi, bu esa migratsiya va malakali ishchilarning harakatlanishini talab qiladi. Mehnat migratsiyasi bo'yicha avvalgi qoidalar, va siyosatlar Afg'onistonda mehnat bozorining samaradorligini va rivojlanishini yaxshilashga to'sqinlik qildi.[15] “Bir makon, bir yo'l” dasturi mintaqada huquqiy migratsiya tartib – qoidalarini siyosatni ishlab chiqish, sud hokimiyati va axloqiy jihatdan rivojlantirish uchun siyosiy va ma'muriy yordam beradi. Dastur “Buyuk Ipak yo'lining iqtisodiy zonasi” va “XXI asrda dengiz ipak yo'li” qurilishini o'z ichiga oldi. Xitoy hukumati va korxonalari Ipak yo'ldagi 49 ta mamlakatga to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalar kiritgan. Ushbu xalqaro shartnomalarining umumiy qiymati 17,83 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. “Bir makon, bir yo'l” dasturining asosiy maqsadi – hamkorlikni yo'lga qo'yilishi va Ipak Yo'ldagi mamlakatlar o'rtasida taraqqiyotni rag'batlantirishdan iborat. Bu shuningdek, umumiy manfaatlar va maqsadlarni taqsimlashda jahon hamjamiyatini shakllantirishga qaratilgan globallashuv tendensiyalariga mos keladi.

Xitoy iqtisodiy siyosati bugun, Markaziy Osiyo mintaqa davlatlarini zabt etib, Afg'oniston siyosatiga jadallik bilan kirib bormoqda. “Bir makon, bir yo'l” loyihasining umumiy ko'lamida Afg'oniston davlati ham o'rin egallagan, shuning uchun iqtisodiy va siyosiy rivojlanib yo'lga o'tib borayotgan bu davlatga Xitoy va uning tashabbusi bo'lgan loyiha katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “One Belt One Road” strategy and the Chinese Overseas. ISEAS – Yusuf Ishak Institute. Cambridge University Press 2018. P.167-181.
2. Aneja, Atul. Silk Road train to reach Afghanistan on Sept 9. The Hindu (28 August 2016).
3. Clarke, Michael. “‘One Belt, One Road’ and China’s emerging Afghanistan dilemma”. Australian Journal of International Affairs. 2016.
4. Clarke, Michael. China’s Emerging Af-Pak Dilemma. China Brief1. 2015.

5. Clover, Charles and Lucy Hornby. China's Great Game: Road to new empire. Financial Times. 12 October 2015.
6. Downs, Erica. China Buys into Afghanistan. SAIS Review Summer-Fall. 2012.
7. Huasheng, Zhao. Afghanistan and China's new neighbourhood diplomacy. International Affairs. 2016.
8. Martina, Michael and MirwaisHarooni. Slow road from Kabul highlights China's challenge in Afghanistan. Reuters22 November 2015.
9. One Belt One Road: One Stone Kills Three Birds. BNP Paribas Report (24 June 2015).
10. The Economics Intelligence Unit, Prospects and challenges on China's "one belt, one road": a risk assessment report. London, 2015.
11. W.T.Wilson. China's huge «One belt, one road» initiative is sweeping Central Asia.The National Enquirer. 2016 July 27.
12. http://uza.uz/uz/politics/shavkat-mirziyoyev-birgalikdagi-sa-y-harakatlarimiz-natijala-27-04-2019?sphrase_id=3543732
13. http://www.uzbekistan.kg/news_uz%206-25-04-19.php
14. <https://carnegieindia.org/2017/05/12/why-china-s-one-belt-one-road-matters-for-afghanistan-pub-69974>
15. <https://www.trtworld.com/magazine/slowly-but-surely-china-is-moving-into-afghanistan-24276>